



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA
XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH 100

Dilfuza Xamzayeva

Xurshid Xurramov



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH

Dilfuza Xamzayeva
Termiz davlat universiteti
Turizm kafedrasida katta o'qituvchisi, i.f.f.d., PhD.

Xurshid Xurramov
Termiz davlat universiteti
Turizm va mehmondo'stlik 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari hamda institutsional mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy turizm nazariyalari, barqaror rivojlanish konsepsiyasi va yoshlar siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli yondashuv asosida o'rganilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi komparativ tahlil usuli orqali baholanib, ularning samarali amaliyotlarini O'zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilish imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari yoshlar turizmini rivojlantirishda innovatsion infratuzilma, raqamli texnologiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining muhimligini asoslab beradi. Shu bilan birga, yoshlar turizmi segmentini diversifikatsiya qilish, ichki va kiruvchi turizmni rag'batlantirish hamda milliy turizm brendini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar turizmi, xalqaro tajriba, turizm siyosati, innovatsiya, ichki turizm, barqaror rivojlanish, turizm infratuzilmasi, yoshlar siyosati.

Аннотация. Данное исследование посвящено комплексному анализу теоретико-концептуальных основ и институциональных механизмов развития молодежного туризма в Узбекистане. В работе на основе системного подхода изучена взаимосвязь современных теорий туризма, концепции устойчивого развития и молодежной политики. Кроме того, с использованием сравнительного анализа оценен опыт развитых стран и определены возможности адаптации их эффективных практик к условиям Узбекистана. Результаты исследования обосновывают важность инновационной инфраструктуры, цифровых технологий и механизмов государственно-частного партнерства в развитии молодежного туризма. Также разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации по диверсификации сегмента молодежного туризма, стимулированию внутреннего и въездного туризма, а также формированию национального туристического бренда.

Ключевые слова: молодежный туризм, международный опыт, туристическая политика, инновации, внутренний туризм, устойчивое развитие, туристическая инфраструктура, молодежная политика.

Annotation. This study is devoted to a comprehensive analysis of the theoretical and conceptual foundations and institutional mechanisms for the development of youth tourism in Uzbekistan. The research examines the interrelationship between modern tourism theories, the concept of sustainable development, and youth policy based on a systematic approach. In addition, the experience of developed countries is evaluated using comparative analysis, and the possibilities of adapting their best practices to the conditions of Uzbekistan are identified. The findings highlight the importance of innovative infrastructure, digital technologies, and public-private partnership mechanisms in the development of youth tourism. Furthermore, scientifically grounded recommendations are proposed for diversifying the youth tourism segment, promoting domestic and inbound tourism, and developing a national tourism brand.

Keywords: youth tourism, international experience, tourism policy, innovation, domestic tourism, sustainable development, tourism infrastructure, youth policy.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi iqtisodiyotning muhim drayveriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar turizmi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy



rivojlanishga ham xizmat qiladi. World Tourism Organization ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar (15–30 yosh) global sayyohlar oqimining muhim qismini tashkil etib, ularning turizmga bo'lgan talabi yildan yilga oshib bormoqda [1]. Ushbu segment vakillari, ayniqsa, innovatsion, arzon va tajribaga yo'naltirilgan turistik xizmatlarga yuqori qiziqish bildiradi. Shu jihatdan, yoshlar turizmi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki madaniy almashinuv, inson kapitalini rivojlantirish hamda barqaror turizmni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [2].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda yoshlar turizmi ko'pincha mobil, moslashuvchan va innovatsiyaga ochiq segment sifatida tavsiflanadi. Xususan, Greg Richards va Julie Wilson tadqiqotlarida yoshlar turizmining tajriba asoslangan xarakteri, ya'ni an'anaviy dam olishdan ko'ra yangi bilim va ko'nikmalar olishga yo'naltirilganligi asoslab berilgan [3]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va globallashtirish jarayonlari yoshlarning sayohat qilish xulq-atvorini tubdan o'zgartirib, yangi turistik mahsulotlar va xizmatlarni shakllantirishga olib kelmoqda [4].

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Turizm qo'mitasi tomonidan turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va yangi turistik yo'nalishlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, yoshlar turizmi hali to'liq shakllanmagan segment sifatida qolmoqda va uni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish hamda milliy sharoitga moslashtirish zarurati mavjud.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yoshlar turizmini rivojlantirishda institutsional qo'llab-quvvatlash, raqamli infratuzilma va arzon turistik mahsulotlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, European Youth Card Association tomonidan joriy etilgan chegirmalar tizimi yoshlar turizmini keng ommalashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, AQSh va Yevropa mamlakatlarida ta'lim turizmi hamda almashinuv dasturlari yoshlar mobilitetini sezilarli darajada oshirgan [5].

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish uchun xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu muammoni hal etishga qaratilgan bo'lib, unda yoshlar turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari kompleks tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar turizmi zamonaviy turizm industriyasining eng dinamik va istiqbolli segmentlaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va yetakchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar ushbu yo'nalishning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatini ham ochib beradi.

Yoshlar turizmini ilmiy jihatdan o'rganish xalqaro turizm tadqiqotlarida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, World Tourism Organization tomonidan tayyorlangan Global Report on Youth Travel hisobotida yoshlar turizmi global turistik oqimning qariyb 20–25 foizini tashkil etishi, ushbu segment esa eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri ekanligi asoslab berilgan. Mazkur tadqiqotda yosh sayyohlarning asosiy xususiyati sifatida ularning uzoq muddatli, kam byudjetli va tajribaga yo'naltirilgan sayohatlarni afzal ko'rishi qayd etiladi [6].

Shuningdek, World Youth Student and Educational Travel Confederation (WYSETC) tadqiqotlari yoshlar turizmining iqtisodiy samaradorligi va innovatsion xarakterini asoslab beradi. Unga ko'ra, yosh sayyohlar kam byudjetli bo'lishiga qaramay, umumiy xarajatlar hajmi yuqori bo'lib, ular ko'pincha mahalliy iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, yoshlar turizmi ta'lim, volontyorlik va madaniy almashinuv kabi faoliyatlar bilan uzviy bog'liq ekanligi qayd etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda yoshlar turizmining nazariy asoslari va konseptual yondashuvlari ham chuqur tahlil qilingan. Jumladan, Greg Richards tomonidan yoshlar turizmi keng o'rganilgan. Uning The New Global Nomads: Youth Travel in a Globalizing World asarida yoshlar turizmi globallashtirish sharoitida shakllanayotgan yangi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilinadi [7]. Muallif yosh sayyohlarning asosiy motivatsiyasi sifatida "tajriba orttirish", "o'zini rivojlantirish" va "autentik madaniyat bilan tanishish" omillarini ajratib ko'rsatadi.

Shuningdek, Julie Wilson bilan hammualliflikdagi tadqiqotlarda backpacker turizmi yoshlar turizmining asosiy shakllaridan biri sifatida tahlil qilinadi [8]. Ushbu tadqiqotlarda yosh sayyohlarning mustaqil sayohat qilishga intilishi, arzon turistik xizmatlarga talabning yuqoriligi hamda mahalliy madaniyat bilan bevosita aloqaga kirishishga bo'lgan qiziqishi asoslab berilgan.

Raqamli texnologiyalarning yoshlar turizmiga ta'siri Ulrike Gretzel va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoritilgan [9]. Ularning ilmiy ishlarida raqamli platformalar, mobil ilovalar va "aqlli turizm" konsepsiyasi yoshlar sayohat xulq-atvorini tubdan o'zgartirib, yangi turistik mahsulot va xizmatlar shakllanishiga olib kelayotgani ilmiy asoslangan. Raqamlashtirish turizmni innovatsion bosqichga olib chiqayotgani ham alohida ta'kidlanadi.



Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rgangan European Travel Commission hisobotlarida yoshlar turizmini rivojlantirish uchun arzon infratuzilma (xostellar, transport tizimlari), ta'lim dasturlari va raqamli marketing vositalarini joriy etish muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston turizmi rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, mamlakatda turizm so'nggi yillarda iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan tarmog'iga aylangan bo'lib, davlat tomonidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda infratuzilmani modernizatsiya qilish, marketing siyosatini kuchaytirish hamda yangi turistik yo'nalishlarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mahalliy olimlar, jumladan, S. Sharipov o'z tadqiqotlarida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari va muammolarini tahlil qilib, yoshlar turizmini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamli texnologiyalar va startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslab beradi [10]. Shuningdek, boshqa mahalliy tadqiqotchilar turizmni hududiy rivojlantirish, xizmatlar diversifikatsiyasi va xalqaro tajribalarni moslashtirish muhimligini ta'kidlaydilar.

Ayrim tadqiqotlarda yoshlar turizmini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida yangi turistik mahsulotlar yaratish, raqamli platformalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim turizmi, volontyorlik dasturlari, arzon turizm infratuzilmasi hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish O'zbekiston uchun ustuvor yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy yondashuvlar yoshlar turizmini rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Biroq, O'zbekiston sharoitida xalqaro tajribalarni tizimli joriy etish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni qo'llash masalalarini chuqur va tizimli o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik hamda taqqoslama tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini turizm iqtisodiyoti, xizmatlar marketingi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda yoshlar turizmi bilan bog'liq ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda statistik ma'lumotlari o'rganildi va umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari yordamida mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar chuqur o'rganildi va tizimlashtirildi. Taqqoslash (komparativ) usuli orqali O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda yoshlar turizmini rivojlantirish tajribalari o'zaro solishtirilib, samarali mexanizmlar aniqlandi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida yoshlar turizmi yagona tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ta'sir mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotda induktiv va deduktiv yondashuvlar ham qo'llanilib, umumiy xulosalardan aniq natijalarga va aksincha o'tish orqali ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda yoshlar turizmi jahon turizm bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri sifatida shakllanmoqda. World Tourism Organization ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar umumiy xalqaro turistlarning taxminan 20–23 foizini tashkil etadi.

Yoshlar turizmi (15–29 yosh segmenti) xalqaro turizmning eng dinamik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning o'sishi globallashtirish, ta'lim mobiliteti va raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog'liq. World Tourism Organization (UNWTO) hamda World Youth Student and Educational Travel Confederation ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar turizmi umumiy xalqaro sayohatlarning sezilarli qismini tashkil etadi va bu segment iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh turistlar:

- o'rtacha sayohat davomiyligi uzoq (40–60 kun);
- mahalliy iqtisodiyotga ko'proq mablag' sarflaydi;
- an'anaviy turistlarga qaraganda innovatsion xizmatlarni tezroq qabul qiladi.

Bundan tashqari, UNWTO hisobotlariga ko'ra, yosh turistlar umumiy turizm xarajatlarning 30 foizga yaqin qismini shakllantiradi.



Yoshlar turizmi — bu 16–30 yosh oralig'idagi aholining turistik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u ko'proq sarguzasht, ta'lim, madaniy almashinuv va faol dam olishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur segment innovatsion xizmatlarga tez moslashishi, uzoq muddatli sayohatlarni afzal ko'rishi va mahalliy iqtisodiyotga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Yoshlar turizmining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati uning ko'p qirrali funksional xususiyatlari bilan belgilanadi. Mazkur segment iqtisodiy daromadlarni shakllantiruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'lib, mehnat bozorida yoshlar bandligini oshirish, hududiy rivojlanishni rag'batlantirish hamda xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yoshlar turizmi iste'mol xulq-atvorining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, ya'ni narxga yuqori sezgirlik, arzon va moslashuvchan xizmatlarga talabning ustuvorligi, shuningdek, innovatsion va raqamli texnologiyalarni tezkor qabul qilish darajasi bilan tavsiflanadi.

Xususan, yoshlar turizmi mehnat bozorining fleksibil segmentini shakllantirib, mavsumiy bandlik, xizmat ko'rsatish sektori va startap ekotizimi doirasida yangi ish o'rinlari yaratish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi. Bundan tashqari, ushbu segment hududiy iqtisodiyotlarning diversifikatsiyasiga xizmat qilib, turistik salohiyati yetarlicha realizatsiya qilinmagan hududlarda infratuzilmaviy modernizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi hamda investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Yoshlar turizmi global miqyosda madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantiruvchi muhim platforma sifatida ham namoyon bo'lib, bilim va tajriba almashinuvi, ijtimoiy kapitalning shakllanishi hamda transmilliy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yosh turistlar orasida byudjet segmentiga bo'lgan talabning yuqoriligi turizm bozorida arzon va inklyuziv xizmatlar rivojlanishini rag'batlantiradi.

Zamonaviy sharoitda yoshlar turizmi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, mobil texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari, platforma iqtisodiyoti hamda sun'iy intellekt asosidagi servislarning keng qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, "independent travel" konsepsiyasining kengayishi yoshlarning turistik xulq-atvorida disintermediation jarayonlarini kuchaytirib, ya'ni vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri xizmat tanlash va individual marshrutlarni shakllantirish tendensiyasini yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, yoshlar turizmining muhim xususiyatlaridan biri sifatida madaniy almashinuvga bo'lgan yuqori motivatsiya e'tirof etilib, bu jarayon turli xalqlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy integratsiyani chuqurlashtirish, global identifikatsiyaning shakllanishi va madaniy xilma-xillikni saqlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar turizmi jahon turizm bozorining eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayon yoshlarning ijtimoiy faolligi, mobilitet darajasi hamda bilim va tajriba almashishga bo'lgan intilishining ortib borishi bilan izohlanadi. Shu sababli, yoshlar turizmini samarali rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Yoshlar turizmini rivojlantirishda xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu segmentni samarali tashkil etish davlat siyosati, ta'lim tizimi, raqamli infratuzilma va mehnat bozori bilan uzviy integratsiyaga asoslanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini komparativ tahlil qilish orqali yoshlar turizmini rivojlantirishning samarali modellari aniqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, ayniqsa Yevropa mamlakatlari tajribasini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur hududda yoshlar turizmi tizimli ravishda rivojlangan bo'lib, u davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu tajribani tahlil qilish va ilg'or jihatlarni milliy sharoitga moslashtirish O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Yevropa tajribasi yoshlar turizmini rivojlantirishda tizimli yondashuv mavjudligini ko'rsatadi. European Travel Commission hisobotlarida yoshlar uchun maxsus turistik infratuzilma — xususan, xostellar, arzon transport tizimlari va interrail dasturlari orqali turistik oqimni sezilarli darajada oshirish mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, ushbu model yoshlar ehtiyojlariga moslashgan xizmatlar yaratish orqali turizm bozorida barqaror talabni shakllantiradi.

Ayniqsa, European Commissionning Erasmus+ dasturi yoshlar turizmini ta'lim bilan integratsiyalashning samarali modeli sifatida e'tirof etiladi. Ushbu dastur orqali millionlab yoshlar boshqa mamlakatlarda ta'lim olish va sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Osiyo davlatlari tajribasida esa innovatsion va raqamli yondashuvlar ustunlik qiladi. Janubiy Koreya va Yaponiyada yoshlar turizmini rivojlantirishda kreativ industriyalar (K-pop, anime, madaniy festivallar) hamda raqamli marketing vositalari muhim rol o'ynaydi. Bu mamlakatlarda turizmni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, yoshlar uchun maxsus platformalar, mobil ilovalar va startap ekotizimlari yaratilgan.

1-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda yoshlar turizmini rivojlantirish modellari¹

№	Mamlakat	Asosiy mexanizm	Natija
1.	Germaniya/ Yevropa Ittifoqi	Erasmus+ almashinuv dasturi	Talabalar mobiliteti keskin oshgan
2.	Janubiy Koreya	Raqamli turizm platformalari	Arzon va tezkor bronlash tizimi
3.	Turkiya	Yoshlar uchun subsidiyalar va chegirmalar	Ichki turizm faollashgan
4.	Avstraliya	Work & Travel dasturi	Uzoq muddatli turizm oqimi
5.	AQSh	Ta'lim turizmi va kampus sayohatlari	Turizm + ta'lim integratsiyasi

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yoshlar turizmini rivojlantirishda har bir mamlakat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, turli mexanizmlarni qo'llaydi. Xususan, European Union mamlakatlarida yoshlar turizmi ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan bo'lsa, Janubiy Koreyada bu jarayon raqamli texnologiyalar asosida shakllangan. Turkiya tajribasida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi, Avstraliya modelida esa turizm mehnat bozori bilan chambarchas bog'langan.

Shuningdek, AQSh tajribasi yoshlar turizmini ta'lim tizimi bilan integratsiyalash orqali rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur modellarning tahlili shuni tasdiqlaydiki, yoshlar turizmini samarali rivojlantirish uchun uni ta'lim, iqtisodiyot va texnologiyalar bilan uyg'un holda tashkil etish zarur [13].

O'zbekiston sharoitida ushbu ilg'or tajribalarni moslashtirish quyidagi strategik yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- Yevropa tajribasi asosida oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyalashgan talabalar almashinuvi va ichki turizm dasturlarini rivojlantirish;
- Janubiy Koreya modeli asosida raqamli turizm platformalari, mobil ilovalar va onlayn bronlash tizimlarini keng joriy etish;
- Avstraliya tajribasiga tayangan holda yoshlar uchun "Work & Travel" tipidagi ichki va xalqaro dasturlarni yo'lga qo'yish.

Shu bilan birga, yuqorida tahlil qilingan modellarning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi O'zbekistonda yoshlar turizmini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Xususan, ushbu yondashuv turistik xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish, yoshlar bandligini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Natijada, yoshlar turizmi mamlakat turizm siyosatining ustuvor va strategik yo'nalishlaridan biriga aylanishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirishga zamin yaratishi mumkin.

Biroq, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida O'zbekistonda yoshlar turizmini yanada rivojlantirish uchun ayrim ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur. Xususan:

- yoshlar segmentiga moslashtirilgan arzon va moslashuvchan turistik paketlarni kengaytirish ushbu yo'nalishning ommalashuvini yanada jadallashtirishi mumkin;
- turizm infratuzilmasini, ayniqsa ayrim hududlarda transport, joylashtirish va xizmat ko'rsatish tizimlarini takomillashtirish yoshlar oqimini oshirishga xizmat qiladi;
- marketing va brending strategiyalarini kuchaytirish, xususan yoshlar auditoriyasiga yo'naltirilgan zamonaviy targ'ibot vositalaridan faol foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;
- ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyati kengayadi.

Xulosa va takliflar

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar turizmini samarali rivojlantirish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni moslashtirish bir qator ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Avvalo, yoshlar uchun maxsus turistik paketlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda arzon va moslashuvchan xizmatlarni taklif etish, shuningdek, talabalar uchun turli chegirmalarni joriy qilish orqali yoshlar segmentining turizmga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu esa ichki va tashqi turistik oqimni ko'paytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish zarur. Xususan, mobil ilovalar, onlayn bron qilish tizimlari va raqamli platformalarni rivojlantirish yoshlar uchun turizmni yanada qulay va tezkor qiladi. Bu jarayon turizm infratuzilmasining raqamli transformatsiyasini ta'minlaydi.

¹ UNWTO. *Global Report on Youth Travel*. Madrid: World Tourism Organization ma'lumotlari asosida muallaf tomonidan ishlab chiqildi.



Uchinchidan, yoshlar turizm festivallarini tashkil etish orqali madaniy almashinuvni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish mumkin. Bunday tadbirlar yoshlar o'rtasida ijtimoiy faollikni oshiradi hamda mamlakatning turistik jozibadorligini kuchaytiradi.

Shuningdek, ta'lim turizmini rivojlantirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro almashinuv dasturlari, yozgi maktablar va qisqa muddatli o'quv dasturlari orqali yoshlarning bilim olish bilan birga sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Bundan tashqari, milliy turizm brendingi va marketing strategiyasini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Jumladan, "Youth Travel Uzbekistan" konsepsiyasini ishlab chiqish va ijtimoiy tarmoqlar orqali faol targ'ibot olib borish yoshlar turizmini xalqaro darajada tanitishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yoshlar turizmini rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- yoshlar turizmini rivojlantirishga qaratilgan yagona milliy strategiyani ishlab chiqish zarur bo'lib, unda ushbu segmentning ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish mexanizmlari aniq belgilanishi lozim. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, arzon turar joylar, transport va xizmat ko'rsatish obyektlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega;
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ilg'or tajribalarni jalb etish va amaliyotga joriy etish mumkin. Turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, jumladan, raqamli platformalar va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlarni rivojlantirish ham dolzarb yo'nalishlardan biridir;
- yoshlar turizmini qo'llab-quvvatlash maqsadida grantlar, subsidiyalar va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu esa yoshlarning turizm faoliyatidagi ishtirokini oshirish va ushbu sohani barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish katta iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga ega. Xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Tourism Organization. Global Report on Youth Travel. — Madrid: UNWTO, 2016. — 60 p.
2. Greg Richards. The New Global Nomads: Youth Travel in a Globalizing World. — Bristol: Channel View Publications, 2015. — 240 p.
3. Greg Richards, Julie Wilson. The impact of cultural events on city image // Urban Studies. — 2004.
4. Ulrike Gretzel et al. Smart tourism and digital transformation // Tourism Management. — 2020.
5. European Commission. Youth Policies and Mobility Programs in Europe. — Brussels: European Commission, 2018.
6. Greg Richards, Julie Wilson. The Global Nomad: Backpacker Travel in Theory and Practice. — Clevedon: Channel View Publications, 2004. — 320 p.
7. Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Zheng Xiang, Chulmo Koo. Smart tourism: Foundations and developments // Electronic Markets. — 2015. — Vol. 25, No. 3. — P. 179–188. — DOI: 10.1007/s12525-015-0196-8.
8. Ulrike Gretzel et al. e-Tourism beyond COVID-19 // Information Technology & Tourism. — 2020. — Vol. 22. — P. 187–203. — DOI: 10.1007/s40558-020-00181-3.
9. European Commission. Erasmus+ Programme Annual Report 2020. — Brussels: European Commission, 2020.
10. Jinsoo Kim, Daniel R. Fesenmaier. Sharing tourism experiences // Journal of Travel Research. — 2017. — Vol. 56, No. 1. — P. 28–40.
11. Greg Richards. The new global nomads // Tourism Recreation Research. — 2015. — Vol. 40, No. 3. — P. 340–352.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>